



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-noyabr

659-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-381-son hamda viloyat hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi 553-6-0-Q/24-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-381-son hamda viloyat hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi 553-6-0-Q/24-son qarori ijrosini Mingbuloq tumanida ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘q otish sport turlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-noyabrdagi PQ-381-son hamda viloyat hokimining 2024-yil 15-noyabrdagi 553-6-0-Q/24-son qarorini rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

quyidagilar o‘q otish, stenddan o‘q otish va para o‘q otish sport turlarini (keyingi o‘rinlarda—o‘q otish sport turlari) rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi;

o‘q otish sport turlarini ommalashtirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, seleksiya qilish hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning barcha bosqichlarini raqamlashtirishi;

o‘q otish sport turlari bo‘yicha professional trenerlar va boshqa mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirishi;

o‘q otish sport turlari bo‘yicha zamonaviy sport majmualarini barpo etish, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta‘minlash, mavjud moddiy-texnik bazani mustahkamlashi;

o‘q otish sport turlari bo‘yicha sport musobaqalarini tizimli tashkil etib borishi;

Sport vazirligi, Mudofaa vazirligi, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston o‘q otish sporti federatsiyasining;

a) harbiy okrug va harbiy qismlar zimmasiga mos ravishda hududlarda (viloyat, tuman va shaharlarda) o'q otish sport turlarini rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash va saralab olish, ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash hamda hududiy terma jamoalarning respublika sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlash vazifalarini yuklashi;

b) olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida bosqichma-bosqich 10 m masofaga o'q otish sport bazalarini tashkil etish hamda ularni zamonaviy sport anjomlari va inventarlari bilan jihozlashi;

bunda, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o'q otish sport bazalarini tashkil etish hamda ularni zamonaviy sport anjomlari va inventarlari bilan jihozlash ularning haqiqiy ehtiyojidan kelib chiqib, Sport vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan reja-jadval asosida amalga oshirilishi;

d) Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlaridagi (ularga tutash hududlardagi) harbiy poligonlar o'q otish sport bazalarini Sport vazirligi tizimidagi davlat sport-ta'lim muassasalariga 25 m va 50 m masofaga o'q otish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish sport bazalari sifatida beg'araz asosda birlashtirish to'g'risidagi takliflari ma'qullanganligi;

quyidagilar:

Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tashkil etiladigan 10 m masofaga o'q otish sport bazalarini jihozlash uchun xarid qilinadigan sport anjomlari va jihozlari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

Sport vazirligi tizimidagi davlat sport-ta'lim muassasalariga birlashtiriladigan Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlaridagi (ularga tutash hududlardagi) harbiy poligonlarning o'q otish sport bazalari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining tuman (shahar)lardagi sport maktablarida o'q otish sport turlarini rivojlantirishga uslubiy va moddiy-texnik jihatdan ko'maklashish to'g'risidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlanganligi;

bunda:

tuman (shahar)lardagi sport maktablarida bosqichma-bosqich o'q otish sport turlari bo'yicha sport guruhlari tashkil etilishi;

O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining hududlardagi mavjud o'q otish sport bazalari tuman (shahar)lardagi sport maktablari uchun amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish sport bazalari sifatida beg'araz asosda birlashtirilishi;

Mudofaa vazirligiga O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining hududlarda o'q otish sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha tashabbusli loyihalarini ijtimoiy buyurtma shaklida belgilangan tartibda moliyalashtirib borish huquqi berilishi;

Mudofaa vazirligi, Sport vazirligi, O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi va O‘zbekiston o‘q otish sporti federatsiyasining Mudofaa vazirligining Chirchiq shahridagi “Qibray sport majmuasi” negizida o‘q otish, stenddan o‘q otish va para o‘q otish bo‘yicha Terma jamoalar markazini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

belgilanishicha:

terma jamoalar markazi O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi mablag‘lari hisobidan barpo etilishi;

terma jamoalar markazi o‘q otish sport turlari bo‘yicha terma jamoalar va Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi uchun o‘quv-mashg‘ulotlari hamda sport musobaqalarini o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston o‘q otish sporti federatsiyasining asosiy sport bazasi hisoblanishi;

terma jamoalar markazining qurilish-montaj ishlari foydalanishga “tayyor holda topshirish” shartlari asosida amalga oshirilishi;

bunda, terma jamoalar markazi barpo etilib, foydalanishga topshirilgunga qadar Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazining Toshkent shahridagi o‘q otish sport inshooti terma jamoalar va O‘zbekiston o‘q otish sporti federatsiyasi amaliy o‘quv-mashg‘ulotlarini olib borishi uchun beg‘araz asosda biriktirilishi;

Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanidagi O‘rtasaroy posyolkasida joylashgan 99-son harbiy shaharcha hududidagi qurilish-montaj ishlari tugallanmagan bino-inshootlar tutash yer maydonlari bilan birga O‘zbekiston o‘q otish sporti federatsiyasiga doimiy foydalanish huquqi asosida berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab: umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘quv dasturlari doirasida “O‘qotar va pnevmatik sport qurollarining taktik-texnik tavsiflari” amaliy mashg‘ulotlari kiritilishi;

o‘qotar va pnevmatik sport qurollarining taktik-texnik tavsiflari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘zlari biriktirilgan harbiy qism, muassasalar, harbiy poligonlarning doimiy joylashuv joyidagi o‘quv-moddiy bazasidan beg‘araz asosda foydalanishlariga ruxsat etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

Viloyat sport boshqarmasi (A.To‘ychiyev) manfaatdor boshqarma va idoralar, Namangan shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-noyabrdagi PQ–381-son qarori talablari asosida ish tashkil etilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov